



Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” dostonidagi ramziy obrazlar.

Norkobilova Farzona

1 - bosqich talabasi, farzonanorqobilova@gmail.com

Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti

Ilmiy rahbar : G’iyosiddin Shodmonov,

Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent .

Qarshi davlat universiteti, shodmonov768@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o’rta asr turkiy adabiyotining durdonasi sanalgan “Qutadg’u bilig” dostonida qo’llanilgan ramziy obrazlar va ularning ma’naviy-falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Asar voqealari va personajlari orqali insoniy fazilatlar, siyosiy yetuklik, ruhiy poklik va ijtimoiy tartib masalalari timsollar vositasida ifoda etilgan. Ramzlar orqali muallif nafaqat davr ijtimoiy tuzilmasini, balki abadiy qadriyatlarni aks ettirgan. Bu ramzlar shaxsiy fazilatlarini emas, balki butun boshli axloqiy, mafkuraviy va siyosiy tizimni ifodalaydi. Maqolada shuningdek, “Qutadg’u bilig”dan ilgari va keyin yaratilgan adabiy asarlarda ramzlar qanday shakllangani va rivojlangani xususida ham fikr yuritiladi. Jumladan, qadimgi turkiy yodgorliklarda uchraydigan tabiat va hayvonot olamiga oid ramzlar, sufiy adabiyotda ilohiy yuksalish va ichki poklanish timsollari, shuningdek, Temuriylar davrida keng tarqalgan davlat va saltanat ramzlari bilan ideaviy va shakliy uyg’unliklar ko’rsatib beriladi. Bu ramzlar orqali Sharq tafakkurida mavjud bo’lgan donishmandlik, hikmat va ma’naviyatga asoslangan jamiyat tuzumining ideal modeli yoritiladi.

Annotation: This article analyzes the symbolic images used in the epic poem "Kutadgu Bilig", which is considered a masterpiece of medieval Turkic literature, and their spiritual and philosophical essence. Through the events and characters of the work, issues of human qualities, political maturity, spiritual purity, and social order are expressed through symbols. Through symbols, the author reflected not only the social structure of the era, but also eternal values. These symbols represent not personal qualities, but the entire moral, ideological, and political system. The article also discusses how symbols were formed and developed in literary works created before and after "Kutadgu Bilig". In particular, the symbols of nature and the animal world found in ancient Turkic monuments, the symbols of divine ascension and inner purification in Sufi literature, as well as ideological and formal harmonies with the symbols of the state and empire widespread during the Timurid era are shown. These symbols illuminate the ideal model of a social system based on wisdom, prudence, and spirituality that exists in Eastern thought.

Аннотация: В статье анализируются символические образы, используемые в эпической поэме «Кутадгу билиг», которая считается шедевром средневековой тюркской литературы, и их духовно-философская сущность. Через события и персонажей произведения через символы выражены вопросы человеческих качеств, политической зрелости, духовной чистоты и общественного порядка. Через символы автор отразил не только социальную структуру эпохи, но и вечные ценности. Эти символы представляют не личные качества, а всю моральную, идеологическую и политическую систему. В статье также рассматривается, как символы формировались и развивались в литературных произведениях, созданных до и после «Кутадгу билиг». В частности, показаны символы природы и животного мира, встречающиеся в древнетюркских памятниках, символы божественного вознесения и внутреннего очищения в суфийской литературе, а также идеологические и формальные созвучия с символами государства и империи, распространенными в эпоху Тимуридов. Эти символы освещают идеальную



модель общественного устройства, основанного на мудрости, благоразумии и духовности, которая существует в восточной мысли.

*"El ichra tartib bo'lmis ersa, adolat yo'qolur.
Adolat yo'qolsa – davlat so'nur."*

Yusuf Xos Hojib, Qutadg'u bilig¹

Kalit so'zlar: Oyto'ldi, Kuntug'di, O'zg'urmish, O'g'dulmish, ramzlar, kursi, koptok, islomiy.

Keywords: Oytuldi, Kuntugdi, Uzgurmish, Ugdulmish, symbols, chair, ball, Islamic.

Ключевые слова: Ойто'лди, Кунтуг'ди, Узгурмиш, О'гдулмиш, символы, стул, шар, исламский.

Kirish.

Turkiy xalqlar tafakkurida ramziy obrazlar qadimdan muhim o'rin tutgan bo'lib, ular asosan totemizm, animizm, shamanizm, keyinchalik esa diniy-falsafiy dunyoqarashlar asosida shakllangan. Ramzlar dastlab diniy marosimlar, davlat boshqaruvi, shaxsiy fazilatlar va ijtimoiy tartibga oid belgilar sifatida namoyon bo'lgan. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida uchraydigan ramzlarning ildizlari ham aynan shu qadimgi manbalarda mavjud bo'lgan timsollarga borib taqaladi. Shunday ekan, dastlab O'rxun-Enasoy yodgorliklaridagi ramziy belgilarga to'xtalib o'tsak. VIII asrga oid O'rxun bitiklari — Bilga xoqon, Kultegin va To'nyuquq bitiklarida ramzli obrazlar keng qo'llaniladi. Bu yodgorliklarda bo'ri, qirg'iy, oy-qo'yoq, tog', suv, osmon kabi timsollar turkiy xalqning tabiat bilan uyg'un hayotini, hukmdorlik va tangriga ishonch tizimini aks ettiradi.

²**Bo'ri** — urush, jasorat, ajdod ruhi va himoya timsoli. "Bo'ri urug'i" tushunchasi turkiy xalqlarning kelib chiqish afsonasida markaziy o'rinni egallagan. **Qirg'iy** (lochin) — hukmdor kuchi, nozik sezgirlik va nazorat belgisi. Osmondan kelgan kuch — tangrilik tushunchasi asosida **"osmon"** eng oliy hokimiyat manbai sifatida ramziy ma'no kasb etadi.

Totemizm va shamanizm asosidagi ramzlarga to'xtalib o'tsak, qadimgi turkiy jamiyatlarda diniy marosimlar va urf-odatlar ramzlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Ayniqsa, shamanlar tabiat unsurlari orqali ruhlar olamiga aloqador bo'lgan tushunchalarni targ'ib etgan. Masalan: **Olov** — poklanish, hayot va o'lim o'rtasidagi o'tish bosqichi. Shaman olovi marosimiy jihatdan ruhiy poklanish vositasi edi. **Daraxt**³ (hayot daraxti) — osmon, yer va ostki dunyoni birlashtiruvchi ramz. U markaziy ustun sifatida har bir olamga bog'lovchi vosita deb qaralgan. Shuningdek, daraxt timsoli bo'yicha ham turli fikrlar mavjud: Daraxt timsoli — qadimiy turkiy mifologiyada **Nodira Sobirova** (2004) dissertatsiyasi asosida: Xorazm "oshiq" turkumi dostonlarida daraxt ramzi hayot daraxti, olamlararo ko'priq, osmon bilan yer o'rtasidagi bog'lovchi timsol sifatida uchraydi. Ushbu timsol dostonlarda ishqiy kechinmalar, ruhiy yuksalish, va ma'naviy tozalanish ramzi sifatida ishlatiladi. Daraxt ko'pincha qahramonning taqdirini belgilovchi, unga yo'l ko'rsatuvchi, va ko'pincha iltijo qilinadigan tabiiy kuch sifatida ko'rsatiladi. Sobirova bu timsolni turkiy mifologik ildizlarga borib taqalishini ilmiy asoslar bilan ko'rsatadi — ayniqsa, tangriga bog'langan daraxtlar tasviri orqali. ⁴**Murot O'roz** (1991), "Turk asotirlari" maqolasi asosida esa: Turkiy afsonalarda daraxt — bu Tangrining zamin ustidagi soyasi, qudratning timsoli, tabiatning mukaddas yadrosi sifatida talqin etiladi.

1. "El ichra tartib bo'lmis ersa, adolat yo'qolur. Adolat yo'qolsa – davlat so'nur."

— Yusuf Xos Hojib, Qutadg'u bilig

2. Chuqur ramz – inson qalbida yashirin yulduzdir; u faqat tafakkur nuri bilan ko'rinur."

3. Нодира Собирова. Хоразм "ошиқ" туркуми дostonлари сюжети, етакчи мотивлари ва образлари тизимининг мифологик асослари. // Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. 2004. Б. 62;

4. Мурот Ўроз. Турк асотирлари // Сирли олам. – 1991. - №9. Ю. 11.



Daraxtlar, ayniqsa ulug' daraxt, markaziy olam daraxti (kosmik daraxt) tarzida, uch olam — osmon, yer va yer ostini bog'lab turuvchi markaziy nuqta deb qaraladi. U ba'zi asotiriy syujetlarda insonning ruhiy kelib chiqishi, yoki tug'ilish, o'sish, o'lim tsiklining ramzi sifatida ishlatiladi. M. O'roz bu tushunchani turk-mog'ul mifologiyasi, yakut va uyg'ur afsonalari bilan bog'lab tushuntiradi. Umumiy ilmiy xulosa: Daraxt timsoli qadimdan turkiy ongda ilojiiy quvvat, yashovchanlik, tabiiy muvozanat timsoli bo'lgan. **Ona yer** (Yer-Suv) — hayot, baraka, tug'ilish va farovonlik ramzi. Bu timsollar keyinchalik sufiylik va adabiy asarlarda chuqur falsafiy ma'no kasb etgan.

O'g'uznoma va og'zaki epik an'anadagi ramzlar. "O'g'uznoma" — turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan afsonaviy-dostoniy matn bo'lib, unda tarixiy shaxslar va ularning fazilatlarini ramzlar orqali tasvirlanadi. **Ot** — sadoqat, yo'l boshlovchilik, tezlik va shon-sharaf belgisi. Epik dostonlarda ot — qahramonning ajralmas timsoli sifatida keltiriladi. **Oltin** — boylik emas, balki ichki ma'naviy yuksaklik, ilohiy nurlanish belgisi sifatida talqin etiladi.

Davlat timsollari va hukmronlik ramzlarining "Qutadg'u bilig"da badiiy-falsafiy talqiniga to'xtalib o'tsak, turkiy dunyoqarashda hokimiyat, davlat va rahbar shaxsi doimiy ravishda timsollar orqali anglab kelingan. Xususan, qadimgi bitiklarda va og'zaki epik merosda davlat ilohiy buyruq bilan yer yuzida barpo bo'lgan muqaddas tuzum sifatida tasvirlangan bo'lsa, uning boshida turgan shaxs esa tangridan vakolat olgan, adolatni qaror toptiruvchi arbob sifatida talqin etiladi. Bu dunyoqarash "Qutadg'u bilig" dostonida o'zining badiiy-falsafiy shaklini topgan. Asarda davlat faqat siyosiy tuzilma emas, balki ma'naviy, axloqiy va kosmik uyg'unlikka asoslangan tizim sifatida gavdalanadi. Unda hokimiyatning bosh maqsadi — xalq farovonligi, adolat qaror topishi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat. Shu bois doston davomida davlat va boshqaruv bilan bog'liq ko'plab ramziy ifodalar qo'llaniladi. Bu ramzlar bevosita muayyan obrazlarga yuklanmasdan, balki butun asarning g'oya va qatlamlarida uzluksiz mavjud bo'ladi. Qadimiy turkiy dunyoda davlat va hokimiyat ramzlari kuchli rivojlangan. Ulardan ayrimlari Yusuf Xos Hojib tomonidan "Qutadg'u bilig"da yangicha talqinda qayta ishlangan: Toj — shon-sharaf, lekin hamisha og'ir mas'uliyatni ham ifodalovchi ramz. Taxt — kuch emas, balki adolat, javobgarlik, va donolik timsoli. Tug' (bayroq) — birlik, xalq iroda, mustaqillik belgisidir. Qilich — adolatni qaror toptirish vositasi, lekin bevosita zo'ravonlik emas, tartibning himoyachisi sifatida tasvirlangan.

Asarga to'xtalsak, Qutadg'u bilig - „qut“ - baxt, saodat, „bilig“ - bilim degan ma'noni bildiradi. Shunga ko'ra asar nomini "Baxtga eltuvchi bilim" yoki "Saodatga yo'llovchi bilim" deb tarjima qilish mumkin. Abdurauf Fitrat uni "Baxtliklanish bilimi" deb o'g'irgan. Demak, asar nomidan ham uning pand-nasihatlarini, ta'limtarbiyaga oid, har tomonlama komil insonni tarbiyalaydigan yetuk ma'rifiy asar ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi. Yusuf Xos Hojibning „Qutadg'u bilig“⁵ („Saodatga yo'llovchi bilim“) asari XI asrda yaratilgan, asarni o'rganish asar yaratilgan vatqdan boshlab o'rganilib juda mashhur bo'lgan. Asar haqida muallifning o'zi: "Boshidan oxirigacha donolar so'zi, go'yoki tizilgan marjonning o'zi", — deya izoh berib o'tgan edi. „Qutadg'u bilig“ markaziga 4 masala qo'yilib, ular 4 obraz vositasida ochib berilgan: birinchisi — adolat bo'lib, u podshoh **Kuntug'di** timsolida, ikkinchisi — davlat bo'lib, vazir **Oyto'ldi**, uchinchisi — aql bo'lib, vazirning o'g'li **O'gdulmish**, to'rtinchisi — qanoat bo'lib, uning qarindoshi **O'zg'urmish** qiyofasida tasvirlanadi. Shunga muvofiq ravishda qo'yilgan masalalar voqealar rivoji, qahramonlarning o'zaro suhbatlari, bahs-munozarasi, savol-javoblari, pand-nasihatlarini vositasida hal qilinadi. Muallif bahsli masalalar yuzasidan ham axloq-odob, ilm, insoniylik va adolat doirasida fikr yuritadi hamda podshoh va amaldorlardan tortib dehqon-u hunarmandgacha — jamiyatdagi barcha toifalarning huquq va burchlari haqida o'z mulohazalarini bildiradi. Borliq haqidagi bilimlarga to'xtalgan — Yusuf Xos Hojib: "Odam

⁵. "To'rt narsa: adolat, saodat, aql va qanoat — davlat poydevoridir."
— Yusuf Xos Hojib, davlatning ramzli asoslari haqida



bilishi mumkin bo'lgan narsa, bilim bilan yechilmaydigan jumboq yo'q, bilim tufayli osmon sari ham yo'l ochiladi", – deydi; bilish uchun esa tinmasdan o'rganish lozim, deb uqtiradi. *Asarlardagi ramzlarni uch guruhga bo'lib tasniflaymiz.*

1. Insonlar(shaxslar)ramzi.
2. Hayvonlar ramzi.
3. Narsa-buyum ramzlari.

Insonlar ramzi:

Kuntug'di elig (hukmdor) Adolat timsoli.

Bu qaxramon adolat timsoli sifatida asarda muhimrol o'ynaydi. Kuntug'di—hukmdorlik va rahbarlik fazilatlarini namoyon etuvchi shaxs bo'lib, u adolatni, to'g'rilikni va xalqning farovonligini ta'minlashgaintiladi. Kuntug'di obrazida adolatning ahamiyati va uning jamiyatdagi roli keng tarqalgan fikrlar bilan ifodalanadi. U xalq oldida mas'uliyatli bo'lib, o'z vazifasini bajarishda har doim adolatli va haqqoniy bo'lishga intiladi. Muallif adolatni nafaqat shaxsiy fazilat sifatida, balki davlat boshqaruvidagi asosiy tamoyil sifatida ham ko'rsatiladi. "Qutadg'u bilig" da Kuntug'dining xarakteri va xulqatvori orqali adolat rahbarlik va insoniyatning axloqiy qadriyatlaridan biri ekanligi chuqur fikrlar asosida aks ettirilgan. Shu tariqa, Kuntug'di obrazining o'рни va ahamiyati asarning ma'nosini yanada boyitadi, asar markazidagi asosiy qaxramonlardan biriga aylantiriladi.

Oyto'ldi—vazir—Davlat timsoli.

"Qutadg'u bilig" dostonida Oyto'ldi, davlatning ma'muriy va siyosiy tizimini ifodalovchi timsol sifatida tasvirlangan. Oyto'ldi vazir, o'zining aqlli va dono fikrlari bilan davlat ishlarini yuritadi. U adolatli, bilimdon va tajribali shaxs sifatida ko'rsatiladi. Davlatning barqarorligi va rivojlanishi uchun uning roli juda katta. Oyto'ldi vaziri ko'plab masalalarda hukmdorga maslahat beradi va xalq manfaatlarini himoya qiladi. Bu timsol orqali muallif davlat boshqaruvi, adolat va ilm-fanning ahamiyatini ta'kidlaydi. Oyto'ldi vazir obrazida yurti boshqarishdagi dono siyosat, adolatli qarorlar qabul qilish va xalqni qo'llab-quvvatlash kabi g'oyalar aks ettirilgan. Qutadg'u bilig asaridagi Oyto'ldi timsoli, shuningdek, o'z zamonasining ijtimoiy-siyosiy muammolarini ham aks ettiradi. Bu esa badiiy adabiyotda insoniyat tarixidagi murakkab masalalarni tadqiq etishga imkon beradi.

O'gdulmish—vazirning o'g'li (otasining vafotidan keyin vazir)—Aql timsoli. O'gdulmish— bu asardagi muhim qahramonlardan biri bo'lib, u vazirning o'g'lidir. Aql timsoli esa asarda aqllilik va donolikni ifodalaydi. O'gdulmish o'zining aqlli fikrlari va mahorati bilan ajralib turadi. U nafaqat otasining merosini davom ettiradi, balki o'zining dono qarorlari bilan jamiyatda ijobiy o'zgarishlarga erishishga intiladi. Aql timsoli esa uning harakatlarida asosiy rol o'ynaydi, chunki dono fikrlar har doim muvaffaqiyatga olib keladi. Asar orqali muallif aqllilik, donolik va adolat kabi qadriyatlarni yuksak baholaydi hamda bu xususiyatlarning jamiyatdagi ahamiyatini ko'rsatadi. O'gdulmish xarakteri orqali muallif, nafaqat, o'sha davrni, balki har davrga mos bo'lgan qimmatli saboqlarni yetkazishga intiladi.

O'zg'urmish — Oyto'ldining uzoq qarindoshi, zohid — Qanoat (ofiyat) timsoli. O'zg'urmish qanoat (ofiyat) timsoli sifatida asarda ahamiyatli o'rin tutadi va har qanday holatga moslashuvchanlikni sabr va shukr qilish orqali ifodalaydi. Bu timsol insonning hayotdagi qiyinchiliklarga qanday munosabatda bo'lishi kerakligini, muammolarga yechim topishda sabr-toqatli bo'lishni va qanoat bilan harakat qilish lozimligini ta'kidlaydi. Timsol shu bilan birga, insonning ichki dunyosidagi muvozanatni saqlab qolish, hayotdagi turli xil sinovlarga bardosh berish qobiliyatini ham aksettiradi. O'zg'urmish orqali muallif o'quvchiga hushyorlik va aql-idrok bilan yashashning ahamiyatini ham yetkazishga urinadi.

Hayvonlar ramziga Bo'rini misol qilib olsak bo'ladi. "Ey Elig, hushyor bo'! Sening saroyingda talay och bo'rilar yig'ilgan. Xalq — misoli qo'y. Bek esa qo'ychivondek gap. Qo'yni posboni mehribon bo'lmog'i, qo'ylarni bo'rilar changalidan omon saqlamog'i



kerak”. Yuqorida ikki jonzotning ramzini ko’rishimiz mumkin, aslida. Ya’ni xalqning qo’yga o’xshatilishi hamda saroy a’yonlarini och bo’riga qiyoslanishi. Bunda, yozuvchi o’z davrida bo’lgan nohaqliklar, qiyinchiliklar haqida yozgan, ya’ni o’sha davrda saroy mulozimlari xalqni qiynagan, turli soliqlar bilan xalqni mushkul holatga keltirib qo’ygan. Shu yerda ham bir ibrat bor ya’ni : “ Qo’yning posboni mehribon bo’lmog’i lozim” Bu davlat rahbarlariga tegishli, ular xalqqa mehribon bo’lsa, bo’rilar ularni talay olmaydi. Qo’shimcha qiladigan bo’lsak, San’at-hunar— kishiga chiroy. Turli-tuman hunarlami o’rganmaslik — tubanlik belgisi. San’at-hunar **oqqushga** o’xshaydi. **Humoqush** soyasi tusligan odam davlat va saodatga erishganiday, hunar va san’at egalari ham baxtiyor bo’ladi. Katta yoshlilar bu haqda shunday deyishgan:

Bilim, hunar o’rgan, og’ir tut uni,

Og’ir tutar oxir hunar ham seni.

Bilim bil, uquv uq, yurma behuda,

Payti kelsa yorir bu xil er kuni.

Narsa-buyum ramzlariga to’xtalib o’tamiz. Bir kuni elig yolg’iz o’tirganida yoniga Oyto’ldi kirib, qarshisida tik turadi. Kuntug’di uni o’tirishga buyuradi, u yonidan **to’p** chiqarib, uning ustiga o’tiradi. Kuntug’di ko’p savollar beradi, Oyto’ldi ularga ko’ngilni ravshan qiladigan javoblar qaytaradi. Kuntug’di mamnun bo’lib uning yuziga qarasa, u boshqa tomonga buriladi. Elig qahrilanadi, Oyto’ldi unga o’zini anglatadi: “Mening hozirgacha senga ko’rsatgan amallarim, oddiy odatlarim edi. Huzuringda o’tirmaganim, dunyoda menga muqim turishga joy yo’q, deganimdir. Yerga to’p qo’yganim o’z holimdan ishoradir, men to’p kabi beqarorman. Oqar suv, ravon til va qut tinim bilmay harakatda bo’ladi. Qut-davlat ishonchsiz, bevafo va beqaror. Mening beqarorligim nuqsonim emas, borlig’imdir. Eskirmasligimning boisi ham shu. Men eskirsam, boshqa eskirgan narsalar kabi yoqimsiz bo’lib qolar edim. Lekin ba’zi zarif, ogoh, meyorini biluvchi, kamtarin, parhezkor kishilar meni uzoq vaqt o’zlari bilan tutib qoladilar”. Elig uning nega Oyto’ldi deb atalishi ma’nosini so’radi. U javob berib, oyning tug’ilganda zaif bo’lishi, bora-bora to’lishib, ko’tarilib borishi, to’lib bo’lgach, yana zaiflashishi, yo’qolishi, boshqa burjda qayta paydo bo’lishi davlatga o’xshashini aytadi. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirsak, Oyto’ldi ya’ni davlat ramzi o’zini to’pga qiyoslagan, chunki to’p beqaror, bir joyda turmaydu huddi u kabi. Bilamizki, davlat insonga muqim berilmaydi, ya’ni o’tkinchi, uni ko’proq ushlab qolish insonning o’ziga bog’liq. Oyto’ldining fikriga ko’ra, u faqat dono va parhezkor insonlar orasidagina uzoqroq qoladi, parhezkor deganda o’z nafsiga qul bo’lmagan shaxslarni tushunsak bo’ladi, bunday toyifa egalorigina davlatni uzoqroq saqlab qolishiga ishora bor. Keyingi ramzimiz esa Kuntug’di bilan bog’loiq. Bir kuni yana elig Oyto’ldini huzuriga chaqiradi. O’zi qo’lida katta bir **pichoq**, o’ng yonida **shakar**, so’l tomonida **urog’un** (bir xil dori) uch oyoqli kumush **kursida** qovog’ini solib o’tiradi. Oyto’ldi buning sababini so’raganda, Kuntug’di o’zining adolat timsoli ekanini, uch oyoqli kursi uning hamisha to’g’rilik bilan poydor turishini, shakar mazlumlarga, urog’un zolimlarga atalganini, yuzining vajohati yuz-xotiri yo’qligini anglatishini aytadi. Ko’rinib turibdiki, yuqoridagi fikrlarda kursi adolat, poydevor ramzi sifatida tasvirlangan, ya’ni bu xususiyatlar Kuntug’diga xosdir.

Shuningdek, «Qutadg’u bilig» asarida ijodkorning odob-axloq, o’g’il-qiz tarbiyasi, halollik, chin insoniylik, kishilikning ulug’ hislatlari, kishining ma’naviy dunyosi, komil inson haqidagi teran falsafiy qarashlari badiiy shaklda bayon etilgan. Ulug’ mutafakkir falsafasi o’rta asrlar Sharq falsafiy qarashlarining cho’qqisida turadi. «Qutadg’u bilig» – baxtu saodat kitobi. Asarni o’qib, ibrat olgan, undagi ko’rsatmalarga amal qilgan kishilarga saodat eshiklari ochiladi. Bu xususda adib

shunday

yozadi:

Kitab


ati

urdum

«Qutadg’u

bilig»,

Qutadsu, o’qig’liqa tutsu elig.



(Kitobga «Qutadg'u bilig» deb ot qo'ydim, Baxtga eltsin, o'qigan kishining qo'lidan tutsin).

Asarda jamiyat qurilishi va davlat boshqaruvi masalalari, barcha amaldorlarning burch va mas'uliyatlari, boshqaruv tizimida qonun va adolatning ustuvorligi, huquqiy masalalarga ham yetakchi urg'u berilgan. Shuning uchun ushbu kitob qoraxoniylar davlatining Nizomi darajasiga erishdi. Bulargina emas, dostonida dunyoning yaralishi, koinotning tuzilishi to'g'risida ham fikr yuritiladi. Bu masalada Yusuf Xos Hojib Sharqdagina emas, dunyo astronomiya bilimida ancha ilg'orlab ketgan faylasuflardan sanaladi. Muhimi shundaki, dostonning muqaddimasida bir bob yulduz va burjlarga bag'ishlangan. Ushbu bob «Yeti yulduz, to'rt yag'iz, o'n iki o'kakning o'gdukini ayur» («Yeti yulduz, to'rt unsur, o'n ikki burjni madh etganini aytadi») deb atalgan. Ulug' donishmandning olam va uning tuzilishi haqidagi falsafiy qarashlari asar bo'ylab davom etadi. Kitobni o'qib, butun bir astronomik atamalar tizimiga to'qnashamiz. Shu tizimning o'ziyoq o'sha kezda astronomik bilimlar yuqori bosqichda ekanligidan belgi berib turadi. Yusuf Xos Hojibning ta'kidlashicha, evran, ya'ni «falak» doim evriladi (muttasil aylanadi), teziginch, ya'ni «Yer kurrasi» teziginadi (charx urib turadi). Muallif Allohga hamd o'qir ekan, yozadi:


*Yaratdi, ko'r, evran tuchi evrulur,
Aning birla teziginch yema teziginur.*

*(Falakni yaratdi, ko'rgin, doim aylanadi,
Uning bilan charx ham charx uradi).*

"Qutadg'u bilig" asaridan keying davr asarlarida qo'llanilgan ramzlar: Alisher Navoiyning "Lison ut-Tayr"⁶ asaridagi ramzlar tahliliga to'xtalsak: "Lison ut-Tayr" asarida ramzlar: tasavvufiy-falsafiy mazmun va timsollar tizimidir. Alisher Navoiy ijodining yuksak cho'qqilaridan biri bo'lgan "Lison ut-Tayr" (Qushlar tili) asari tasavvufiy ruhda falsafiy masnaviy bo'lib, unda chuqur ramziy ifodalar vositasida insonning ma'naviy kamolot sari yuksalish yo'li tasvirlanadi. Asar Fariduddin Attorning "Mantiq ut-Tayr" asaridan ilhomlangan bo'lsa-da, Navoiy o'ziga xos yondashuv va milliy-tasavvufiy ruh orqali ramzlar tizimini boyitgan. Asarning asosiy ramzi – Qushlar va Semurg'. Asarning markazida qushlar jamoasi timsolida insoniyat jamiyati tasvirlanadi. Har bir qush ma'lum bir insoniy sifatni ifodalaydi va ularning Simurghni izlab safarga chiqishi – aslida haqiqat va Haqni izlash yo'lini anglatadi. Bu yo'l – ma'rifat, riyoat, sabr va tavakkul yo'lidir. **Semurg'** – ilohiy haqiqat va Haq Zotining ramzi. Semurg' ramzi asarda Allohning Zoti, ya'ni haqiqatning eng oliy cho'qqisi sifatida talqin qilinadi. Qushlar oxir-oqibat Semurg'ni izlab borib, uning o'zlari ekanini anglab yetishadi. Bu orqali tasavvufiy birlik – "vahdat ul-vujud" g'oyasi ilgari suriladi: ya'ni Haq bilan inson orasida ajralmas bog'liqlik bor. Har bir qush – ma'naviy to'siq va insoniy sifat timsoli. "Lison ut-Tayr"da 30 dan ortiq qushlar nomi zikr etiladi, ulardan ba'zilar quyidagicha ramziy ma'noga ega:

1. Tovus – jannatni sog'inish, lekin dunyo havasiga aldanish timsoli. Nafs-u havoga aldanib, asl maqsaddan chalg'ish.
2. Qarg'a – dunyo bilan bog'liqligi kuchli bo'lgan, nafs bandiga tushib qolgan inson obrazidir.
3. Bulbul – muhabbat va sadoqat ramzi, lekin u jamolga oshno bo'lishda qolib, ma'naviy yuksalishni unutgan.
4. Kapalak – yorug'likka oshiq, lekin sabrsiz; bu ramz sabrsizlik, chidolmaslik sifatini bildiradi.
5. Xo'roz – dunyo havaslariga berilgan, beqarorlik va hadiksizlik timsolidir.
6. Shumqor – o'zini ulug' sanagan, kibr va manmanlik ramzi. Bu o'zini Haqqa yaqin deb bilgan, ammo aslida ma'nodan uzoq bo'lgan shaxs obrazidir.

⁶ "Qushlar sayohatida har bir qush – bir fazilat timsolidir. Yolg'iz donolik emas, ichki tozalik ham yetakchidir." — "Mantiqut-Tayr" asaridagi ramzlar izohi



Har bir qushning bahonasi aslida insonning nafsiy, ruhiy, ijtimoiy zaifliklari va to'siqlarini anglatadi. Navoiy ularning bahonalarini inkor etib, "haqiqat sari yo'l azobli, ammo zarur" degan fikrni ilgari suradi.

Sayr (safir) – ma'naviy kamolot yo'li Asardagi sayr (safir) ramzi – bu insonning o'z nafsini yengib, ruhiy poklanish sari bosib o'tadigan yo'li. Bu yo'lining yettita bosqichi bor (Attorcha yetti daraja), ular: talab, ishq, ma'rifat, istig'no (beparvolik), tavhid, hayrat va fanodir. Bu bosqichlar orqali qushlar (ya'ni insonlar) o'zidagi illatlardan xalos bo'ladi, dunyoviylikdan ilohiylik sari yuksaladi. Bu jarayon sof ramziy va tasavvufiy ma'noga ega. "Lison ut-Tayr" asaridagi ramzlar tasavvuf falsafasi, ma'naviy kamolot, ruhiy tozalik va haqiqat izlash yo'lini chuqur falsafiy timsollar orqali tasvirlaydi. Har bir qush, har bir bahona, har bir harakat inson qalbidagi bir kechinma yoki to'siqni ifodalaydi. Navoiy ushbu ramzlar orqali inson o'zini tanishi, nafsini yengishi va Haqqa yetishi kerakligini anglatadi. Asarning ramzlari universal va abadiy bo'lib, bugungi kun o'quvchisi uchun ham dolzarb ma'naviy saboqdir.

Quyida, Alisher Navoiyning "Lison ut-Tayr" va Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarlaridagi ramzlar o'xshashligini ko'rib chiqamiz. "Qutadg'u bilig" va "Lison ut-Tayr" – sharq adabiyotining ikki muhim asari bo'lib, har ikkalasi ham chuqur ramziy ma'nolar bilan boyitilgan. Garchi biri dunyoviy-axloqiy (Qutadg'u bilig), ikkinchisi esa tasavvufiy-ruhiy (Lison ut-Tayr) yo'nalishda yozilgan bo'lsa-da, ikkalasida ham inson kamoloti, haqiqat izlash va to'g'ri yo'lni topish kabi g'oyalar ramzlar vositasida ifodalangan. Ushbu umumiyliklar ular orasida ramziy ifodaning ma'naviy ildizlari va badiiy tafakkurdagi uzviylikni ko'rsatadi.

Ramzlar orqali haqiqat izlash g'oyasi: Qutadg'u biligda qahramonlar – Kuntug'di (adolat), Oytoldi (baxt), O'gdulmish (aql), Odg'urmish (qanoat) kabi ramziy shaxslar orqali dono va adolatli davlat boshqaruvi, insoniy fazilatlar ilgari suriladi. Har bir obraz muayyan ma'naviy sifatning timsolidir. Lison ut-Tayrda esa qushlar – inson ruhiyatidagi sifat va holatlarning ramzidir. Ular Simurghni (Haqni) izlab safarga chiqadi. Har bir qushning bahonasi – insondagi bir zaiflikning ifodasidir.


◊ O'xshashlik: Har ikkala asarda ham asosiy g'oya – inson o'zini anglashi, ma'naviy poklanish va haqiqatni topishi bo'lib, bu jarayon ramziy obrazlar orqali beriladi.

2. Aql va donolik ramzi: Qutadg'u biligda O'zg'mish obrazi – aql va tafakkurni ifodalaydi. U barcha muammolarga donolik bilan yechim beradi. Lison ut-Tayrda bu funksiyani ba'zi qushlar, xususan shumqor va boshqa ilg'or qushlar bajaradi. Ammo, ular o'zini aql egasi deb bilgan bo'lsa-da, haqiqiy aql – Simurghga yetishishda namoyon bo'ladi. ◊ O'xshashlik: Har ikkala asarda ham aql – yetakchi sifat, lekin uni to'g'ri yo'naltirish zarurligi ta'kidlanadi. Shunchaki aql emas, ma'naviy yuksalgan aql qadrlanadi.

3. Haqiqatning markaziy ramzi: Semurg' va mukammallik g'oyasi: Lison ut-Tayrda Semurg' – Haq Zotining ramzi, ya'ni eng oliy haqiqatdir. Qushlar uni izlab boradi, oxirida o'zlari Semurg' ekanini anglaydi – bu "vahdat ul-vujud" g'oyasidir. Qutadg'u biligda bunday aniq bir timsol bo'lmasa-da, inson mukammalligi, adolatli davlat, aql va qanoat uyg'unligi orqali erishiladigan ideal jamiyat tushunchasi mavjud. Bu ham o'zicha haqiqat ramzidir. ◊ O'xshashlik: Har ikki asarda mukammallikka yetishish yo'li mavjud bo'lib, bu yo'l orqali inson yuksaladi. Biri tasavvufiy birlashuv orqali (Semurg'), ikkinchisi adolatli boshqaruv orqali (Qutadg'u bilig qahramonlari).

4. Yo'l va sayr ramzi – kamolot bosqichlari: Lison ut-Tayrda sayr – ma'naviy yo'l, 7 bosqich (talab, ishq, ma'rifat, istig'no, tavhid, hayrat, fano) orqali ruhiy yuksalishni ifodalaydi. Qutadg'u biligda ham Kuntug'di va boshqa ramziy shaxslar o'z suhbatlarida kamolot yo'lini muhokama

7. "Muhabbat – sham', qalb – parvona, o'zlik – dahlizdir. Fano bo'lmay Haqqa yetish bo'lmas."
— Navoiy



qiladilar. Bu sayr ruhiy emas, balki dunyoviy-ma'naviy yuksalish tarzida ko'rsatilgan. ◇ O'xshashlik: Har ikki asarda "yo'l" – bilim, tajriba, sabr va tushuncha orqali yetilishga olib boruvchi vosita sifatida ifodalanadi.

5. Ramzlarning ko'p qatlamliligi : Har ikki asarda ramzlar bir necha darajada ma'no beradi: tashqi – aniq obraz, ichki – axloqiy yoki ruhiy ma'no, falsafiy – haqiqat talqini. ◇ O'xshashlik: Ramzlar faqat badiiy bezak emas, balki falsafiy yuklama va tarbiyaviy vosita bo'lib xizmat qiladi. Xulosa qilsak, "Qutadg'u bilig" va "Lison ut-Tayr" asarlaridagi ramzlar bir qarashda turlicha yo'nalishda bo'lsa-da, ichki g'oyaviy mohiyatda o'xshashliklar juda ko'p. Ikkalasida ham ramzlar orqali inson kamoloti, haqiqat izlash, adolat, aql va ma'naviy yuksalish g'oyalari ilgari suriladi. Biri davlat va jamiyatning barqarorligini ramzlar orqali tushuntirsa, ikkinchisi ruhiy barkamollikka yetishishni tasavvufiy obrazlar orqali ochib beradi. Bu ikki buyuk asar orqali Sharq tafakkurida ramz vositasida haqiqatni anglash an'anasi qanday uzviylikda davom etganini ko'rish mumkin.

Albatta, "Qutadg'u bilig" asaridagi ramzlarni undan oldin va keyin yaratilgan asarlardagi ramzlar bilan bog'lab o'rganish to'g'rimi degan savolning paydo bo'lishi tabiiy, albatta. Ushbu savolga xulosa qismida javobni taqdim etaman.


Xulosa

"Qutadg'u bilig" asari turkiy adabiyotda ramziy ifoda uslubining mustahkam poydevorini yaratgan bo'lib, undagi har bir obraz va timsol chuqur ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-falsafiy ma'noga ega. Asarda adolat, donolik, baxt va qanoat kabi tushunchalar aniq ramzlar orqali ifodalanib, davlat boshqaruvi va shaxsiy kamolot o'rtasidagi uzviy bog'liqlik yoritilgan. Mazkur asarni undan avvalgi va keyingi adabiy-tasavvufiy asarlardagi ramzlar bilan taqqoslab o'rganish bir necha jihatdan zarurdir:

1. Ramzlarning tarixiy izchilligini aniqlash – Bu yondashuv orqali adabiyotda shakllangan g'oyaviy va ramziy meros qanday rivojlanganini, u qanday tarixiy va ijtimoiy omillar ta'sirida o'zgarganini aniqlash mumkin bo'ladi.
 2. Turkiy tafakkurning uzviyligini anglash – "Qutadg'u bilig"dagi ramzlar Ahmad Yassaviy, Navoiy, Mashrab va boshqa mutafakkirlarning asarlarida turli ko'rinishlarda davom etgan. Ushbu ramzlar orqali turkiy xalq tafakkuri, ma'naviy dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarining yagonaligi namoyon bo'ladi.
 3. Tasavvuf va davlat g'oyalarining uyg'unligini ko'rsatish – Dastlabki ramzlar (adolat, aql, baxt) ko'proq dunyoviy-hokimiy g'oyalarni ifodalagan bo'lsa, keyingi asarlarda ular tasavvufiy, ruhiy kamolotga doir ma'nolar bilan boyigan. Bu esa siyosiy va diniy tafakkurdagi uyg'unlikni ochib beradi.
 4. Bugungi davr uchun ma'naviy saboqlar chiqarish – Ramzlarning davrlar osha qanday talqin qilinishi, ularning hozirgi ma'nodagi o'qilishi bizga qadim tafakkur bilan zamonaviy o'quvchi orasida mustahkam ko'priq qurish imkonini beradi.
- Shunday qilib, "Qutadg'u bilig" asaridagi ramzlarni oldingi (islomgacha bo'lgan yoki dastlabki islomiy adabiyot), hamda keyingi (sufiy va ma'rifatparvar adabiyot) asarlar bilan qiyosiy tahlil asosida o'rganish, nafaqat adabiy tafakkur tarixini chuqurroq anglashga, balki turkiy dunyo qadriyatlarining shakllanish yo'lini yanada kengroq ilmiy asosda yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Yusuf Xos Hojib Qutadg'u bilig: («Saodatda eltuvchi bilim»)/Yusuf Xos Hojib; [Hozirgi o'zbek tilida bayon qiluvchi va so'zboshi muallifi Boqijon To'xliyev], — Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, -T.: 2007. — 200 b.
2. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi /N. Shodmonov, G. Shodmonov/darslik –Qarshi, «Nasaf NMIU» – 2022. 380 bet.



-
3. Nodira Sobirova. Xorazm “oshiq” turkumi dostonlari syujeti, yetakchi motivlari va obrazlari tizimining mifologik asoslari. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. 2004. B.62;
 4. Murot O’roz. Turk asotirlari // Sirli olam. -1991. –N9.IO.11.
 5. „Qutadg‘u bilig“, *O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi* (Q-harfi). Toshkent: „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006-yillar.

Vebsayt:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Qutadg%CA%BBu_bilig#Adabiyotlar.